



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 6-may

VI-43-43-6-0-K/24

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi 781-son qonuniga asosan Chust tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Qoraqo'rg'on va Yuqori maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish yuzasidan tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chust tuman hokimligining Chust tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Qoraqo'rg'on va Yuqori maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan 57 ta turar va 18 ta noturar jami 75 ta mulkdorlarning yashash xonadonlari va noturar obyektlari joylashgan yer uchastkasini olib qo'yish yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish bo'yicha tashabbusi ma'qullansin.

2. Chust tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Qoraqo'rg'on va Yuqori maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan 57 ta turar va 18 ta noturar jami 75 ta huquq egalari bilan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida ochiq muhokama o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Chust tuman hokimi (B.Salimjonov)ga:

tumandagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarni to'liq o'rgangan xolda ochiq muloqatda xar birini ishtirokini ta'minlash;

ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalari asosida tuman bayonnomasini tuzish;

bayonnomaga ochiq muxokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarining (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash;

ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnoma Xalq deputatlari viloyat kengashiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Chust tuman xokimliklariga yuborilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari I.Raxmatov ushbu qaror viloyat va Chust tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to'liq hajmda e'lon qilinishini ta'minlasin.

6. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta'minlab borishga tuman hokimi B.Salimjonovga zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish vazifasi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Iminov hamda viloyat hokimining o'rinbosari G'.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



ABDURAZAKOV
SHAVKAT
SHOKIRDJANOVICH